

OILANI MUSTAHKAMLASH-KELAJAKNI MUSTAHKAMLASH ASOSIDIR

Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna

NamDU yuridik fakulteti dotsenti +998972178415

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21132229>

Annotatsiya. Mazkur maqolada oilaning jamiyat taraqqiyotidagi o’rni, uning ma’naviy-axloqiy muhitni shakllantirishdagi ahamiyati hamda barkamol avlodni tarbiyalashdagi roli yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy globallashuv sharoitida oilaviy qadriyatlarni asrash, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalalari tahlil qilingan. Oilaning mustahkamligi jamiyat barqarorligi va davlat taraqqiyotining muhim omili ekanligi ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan asoslab berilgan.

Kalit soʻzlar: oila, oilaviy qadriyatlar, ma’naviy tarbiya, barkamol avlod, oilaviy munosabatlar, yoshlar tarbiyasi, jamiyat barqarorligi, milliy qadriyatlar, oilaviy muhit, taraqqiyot.

УКРЕПЛЕНИЕ СЕМЬИ — ОСНОВА УКРЕПЛЕНИЯ БУДУЩЕГО

Аннотация. В данной статье раскрывается роль семьи в развитии общества, её значение в формировании духовно-нравственной среды и воспитании гармонично развитого поколения. Также анализируются вопросы сохранения семейных ценностей в условиях глобализации, укрепления внутрисемейных отношений и подготовки молодежи к семейной жизни. Научно-педагогически обосновывается, что прочная семья является важнейшим фактором социальной стабильности и устойчивого развития государства.

Ключевые слова: семья, семейные ценности, духовное воспитание, гармонично развитое поколение, семейные отношения, воспитание молодежи, социальная стабильность, национальные ценности, семейная среда, развитие.

STRENGTHENING THE FAMILY AS A FOUNDATION FOR A STRONGER FUTURE

Abstract. This article examines the role of the family in social development, its importance in shaping a moral and spiritual environment, and its contribution to raising a well-rounded generation. The study also analyzes the preservation of family values in the context of globalization, the strengthening of family relationships, and the preparation of young people for family life. From a scientific and pedagogical perspective, a strong family is substantiated as a key factor in ensuring social stability and sustainable national development.

Keywords: family, family values, moral education, well-rounded generation, family relationships, youth development, social stability, national values, family environment, sustainable development.

Prezidentimiz Sh Mirziyoyev 2025 yil 26 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston

xalqiga Murojaatnomasiga Murojaatida -“ Oila – oilaga, qo‘shni – qo‘shniga ko‘mak berib yashagan. Biz mana shunday o‘ta noyob qadriyatimizga doimo sodiq qolishimiz, yosh avlodimizni ayni shu ruhda tarbiyalashimiz kerak”. [1]

Oila jamiyatning beshigi hisoblanadi. Insoniyatning dastlabki birligi hisoblangan oila insoniyatning birga yashashga bo‘lgan xohishining hosilasi xisonlanadi.

Kishilik jamiyatining tarixiy shakllari hisoblangan ibtidoiy, quldorlik, feodal, kapitalistik, sotsialistik va fuqarolik jamiyatlari ham insonlarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlariga qarab nomlangan. Bu jamiyatlar odamlarning moddiy manfaatlar va intilishlariga qarab biri ikkinchisida o‘rin berib kelgan. Lekin mana shu barcha jamiyatlarning asosiy bo‘g‘ini oila hisoblangan va oila o‘zgarmas ichki tartiblari bilan mustahkamlanib kelgan.

Insoniyat oilani e‘zozlab, asragan. Oilada o‘z kelajagi hisoblangan vorislarni yetishtirgan. Oilani muhofaza qilinishini tarixning barcha davrlarida axloq qoidalari bilan tartibga solib borilgan.

Biz sanab o‘tgan tarixiy jamiyatlarga mutanosib shakllarga davlat tashkiloti ham siyosiy birlik, siyosiy tashkilot hisoblanadi. Davlat qaysi jamiyat bilan moslashsa shu jamiyat a‘zolari manfaatlariga xizmat qilgan. Xususan, quldorlik jamiyatida quldorlik davlati, feodal jamiyatda ham yer egaligiga asoslangan feodal davlat, kapitalistik jamiyatda mulk egalari manfaatini ko‘zlagan burjua davlati ravnaq topgan. Sotsialistik jamiyatda “ishchi-dehqonlar” manfaatlarini ko‘zlagan proletarlar davlati, fuqarolari erkinligiga huquqiy davlat ham yer yuzida rivoj topmoqda. Faqat barcha davlatlar tarbiya o‘chog‘i hisoblangan oilani asrab qolish uchun qonuniy asoslarni mustahkamlab kelmoqda.

Jumladan, O‘zbekistonda oila eng qadrli maskan va kelajagimizni ta‘minlovchi asosiy bo‘gin sifatida qadrlanmoqda.

Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasining “Oila, bolalar va yoshlar” deb nomlangan XIV-bobi 76-moddasida ifodalanishicha: “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir”. [3]

“Oila instituti” deb nomlanishi sababi insonlar turli maqsadlarda bir necha turdagi jamlanishni paydo qilganligi va oila ham shu kabi bir jamlanish hisoblanishdadir.

Bu birlashuv katta ahamiyatga ega bo‘lib, oila birga yashash bilan yangi avlodni vujudga keltirish, kelajak avlodni oila qadriyatlariga mos qilib tarbiyalash, dunyoda

insoniy qadriyatlar bardavomligini davom ettirish, dunyoni iqtisodiy rivojlanishini ta’minlovchi avlodni shakllantirish, dunyo ilmini o’rganishni ta’minlash kabi bir qancha jihatlarni zimmasiga oladi.

Oila deb atalmish bu muqaddas dargohda nafaqat inson dunyoga keladi, balki u ma’nan va ahloqan tarbiya topadi. Jamiyat taraqqiyoti va ravnaqi oilaning mustahkamliligiga bog’liqdir. Zero, jamiyat asosi - oilaning moddiy va ijtimoiy jihatdan mustahkamlanib borishi g’oyat muhim ahamiyatga ega.

Oila instituti falsafiy-huquqiy, ijtimoiy-biologik va ma’naviy-ahloqiy kategoriyadir. Oila institutini mustahkamlashni so’nggi asrlarda muhim muammoli masalalardan deb hisoblanmoqda.

Agan dunyo oilalarini taxlil etilsa, darxaqiqat muammo jiddiyligini kuzatish mumkin.

Chunki, yer yuzi mamlakatlari oilalarini kuzatish jarayonidagi taxlillar oila munosabatlaridagi inqirozni ko’rsatib berishmoqda.

Bu inqirozni taxlil etamiz:

- voyaga yetmaganlar nikohi asosida oila qurish;
- bir xil jinslilar nikohi asosidagi oilalar shakllanishi;
- qarindosh o’rtasidahi nikoh asosida oilalar shakllanishi;
- oilalarni farzand ko’rish istagisiz qurilishi;
- oilalarda fanzand emas, xayvonlar qadrlanishi;
- umuman oila qurmasdan birgalikda yashash va bundan boshqa qusurllarni ham keltirishimiz mumkin.

Xozirgi zamon tarixchilari, faylasuflari tomonidan oila institute inqirozi bo’yicha juda ko’p statistik ma’lumotlar, turli taxlillar va xulosalar e’lon qilinmoqda. Asarlarda g’arb va sharq oilalarini solishtirish, oiladagi gender masalalari, oila erkinligi, oiladagi shaxs teng huquqliligi borasida asarlar yaratishmoqda. Bu asarlar insonlar kelajagiga ta’siri borasida ham turli ijtimoiy fikrlar shakllanmoqda.

Mamlakatimizda bishqa davlatlardan farqli ravishta oila institutiga kata e’tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev tomonidan oilalarni mustahkamligini ta’minlash borasida muhim tashabbuslar ilgari surilmoqda. Mamlakatimizning uzoq

muddatga munjallangan dasturlarida, strategiyalarida oila institutini mustahkamlash borasida davlat siyosati ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimiz xalqining oilaga taalluqli milliy qadriyatlari, an’analarini saqlash hamda oilaning to’laqonli rivojlanishi uchun davlat ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa zarur shart-sharoitlarni yaratib berilmoqda.

Oila bilan bog’liq qoidalarga qiyosiy-tahliliy nazar shundan dalolat beradiki, Yangi O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik va Oila kodekslari, Prezidentimizning farmonlari, shuningdek boshqa tegishli normativ hujjatlarimizning xalqparvarligiga, ularning milliy qadriyatlarimiz va an’analarimiz bilan uyg’unligiga amin bo’lamiz.

Oila serqirra va mazmuniga ko’ra keng qamrovli maskan hisoblanib, yosh avlod ta’lim-tarbiyasida, ularni sog’lom, to’laqonli va har tomonlama kamol toptirish borasida olib borilayotgan keng ko’lamli islohotlar jarayonida muhim o’rin tutadi. Shu bois, oila azaldan jamiyat ijtimoiy-ma’naviy, qolaversa iqtisodiy, ma’rifiy, ahloqiy, hattoki, siyosiy hayotida muhim ahamiyatga molik bo’lgan muqaddas maskan sifatida e’tirof etiladi

Mamlakatimizda olib borilayotgan har qanday islohotlar mustahkam oila institutini shakllantirish, hamda oilaviy munosabatlarni ahloqiy jihatdan har tomonlama qo’llab-quvvatlash va himoya qilishga qaratilmoqda. «...bugungi tez o’zgarayotgan ziddiyatli davrda oilaviy masalalarni ilmiy asosda chuqur o’rganmasdan turib, ijtimoiy hayotdagi ko’plab murakkab savollarga javob topish qiyin». [2]

Davlat jamiyatning siyosiy tashkiloti sifatida oila institutiga asosiy e’tiborni qaratishi kelajak avlodga, jamiyatning kalajagiga e’tibor hisoblanadi.

Davlatning eng muhim vazifasi oilaviy munosabatlarni nazorat qilish, muammolarni hal qilish, nazoratga olish huquqiy jihatdan boshqarish hisoblanadi. Oilani nazoratga olish har bir bolani, har bir avlodni nazoratga olish hisoblanadi. Bu vazifa davlat zimmasida bo’ladi.

Zero, har qanday jamiyat, davlatning ijtimoiy tanazzuli oilaning buzilishi, barbod bo’lishi kabi illatlar bilan bevosita bog’liq. Shuning uchun oiladagi munosabatlarni, yolg’iz yashovchilar va oilaviy muammolarni o’rganish jamiyat ijtimoiy tarkibini ijobiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Bu yo’nalishda bevosita faoliyat olib borayotgan O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo’mitasi, Xotin-qizlarning

jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi huzuridagi Oila va xotin-qizlar ilmiy tekshirish instituti hamda mahallalarning rolini alohida qayd etish joiz.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yurtimizda azaldan oilaviy munosabatlarda milliy o'ziga xoslik kayfiyati ustuvorlik qiladi. Milliylik shunday shakllanib kelganki unda o'zbek oilalarida tarixan qadr topgan o'ziga xos jihatlari bor.

Bular

- oilaviy munosabatlarda har bir ishtirokchining o'ziga xos o'rni;
- oila a'zolarining o'z Yoshi va xarakteriga xos vazifalar taqsimoti;
- oilaviy burchlarni bajarishga sadoqatlilik;
- oilada kattalarga hurmat va ularni e'zozlanishi;
- oila a'zolarining bir-biri oldidagi qardiyatlar bo'yicha munosabatda bo'lishi va boshqa cheksiz sharqona qadriyatlarni olsak bo'ladi

Sharq qadriyatlari g'arb oilaviy munosabatlaridan farq qiladi.

Ma'lumki, oila sohasi borasida G'arb modellari, nisbatan bizdagi oilaviy munosabatlardan farq qiladi. O'zbek oilalarida shakllangan va odat tarziga kirgan, kattalarga hurmat, erkak kishining roli yuqoriligi, farzand tarbiyasiga jiddiy e'tibor, mehr-oqibat va g'amxo'rlik tug'ularining ustuvorli, oilaning shakllanishi va faoliyatida mahalla va boshqa subektlarning roli kabi ko'plab elementlarni o'z ichiga oladi. Oilaning mustahkamligiga allomalarimiz ham jiddiy e'tibor qaratgan. Bu borada Abdurauf Fitrat: "Har bir millatning saodati va izzati shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bogliq. Tinchlik va totuvlik esa millat oilalarining intizomiga tayanadi, mamlakat va millat ham shuncha kuchli bo'ladi. Agarda bir mamlakatning aholisi axloqsiz va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo'l qo'ysa shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi",- [4] deb ta'kidlagan.

Mamlakatimizda oila institutini asl modelini saqlash mamlakatimiz kelajagini saqlashdir. Xozirda juda ko'p tadqiqotlarimiz aynan shu masalaga qaratilishi, Prezidentimizning oila siyosatini har doim, har sohada qo'llab -quvvatlashimiz muhimdir.

Foydalangan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 2025 yil 26 dekabr. Prezident. Uz.
2. Mirziyoyev Sh.M. Oila va jamiyat ustuni, hayotimizning fayzi va ko‘rki // Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2 jild -T.: O‘zbekiston, 2018, 464-bet.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. -B. 43.
4. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. –T.: Ma’naviyat, 2000 yil.
5. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. FITRATNING NIKOH HAQIDAGI IJTIMOIIY-FALSAFIY QARASHLARI. Sharq tarixi, siyosati va huquqi jurnali. <https://doi.org>. 3.11.2025. B.156-164.
6. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. Ўзбекистонда дин – давлат муносабатлари: халқаро стандартлар, миллий қонунчилик ва амалиёт журнали. 25.05.2026.294-299.
7. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. XOTIN-QIZLARNING JAMIYAT IJTIMOIIY-SIYOSIIY HAYOTIDAGI O‘RNI. “Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali. №3(6).2026 B. 233-240
8. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. Oila mustahkamligini ta’minlashda ota, ona, farzandlar tarbiyasi o‘rni. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH VOLUME-7 ISSUE-10 (30- October) 44-50. VOLUME 7, ISSUE 10 (30- OCTOBER)
9. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. Oila ma’naviyati-jamiyat taraqqiyoti omili. So‘nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. 7-jild 10-son Respublika ilmiy-uslubiy jurnali 13.10.2024. 106- 112
10. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. Nikoh munosabatlarida milliylik va qonun normalarining amal qilishi. So‘nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. Respublika ilmiy-uslubiy jurnali. 13-mart, 2024-yil 7-jild 3-son. 131-135.
11. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. ХУҚУҚИЙ СОҲАДА АЁЛ СИЙМОСИ. MODERN WORLD EDUCATION: NEW AGE PROBLEMS – NEW SOLUTIONS. International online conference. Date: 3 rdFebruary-2025. 40-43-betlar
12. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. OILA GENEZISI. International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS). Volume. 8, Issue 03, March (2025). 231-235-betlar
13. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. OILADA MAS’ULIYAT. International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS). Volume. 8, Issue 03, March (2025).227-230-betlar